

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

DIGITAL COURT IN ENSURING FAIR JUDICIAL PROCESS

Bazarova Dildora

Doctor of Law, Professor

Dean of the Faculty of Criminal Justice

E-mail: d.bazarova@tsul.uz

<http://www.orcid.org/0000-0002-6833-9508>

Abstract. Today, within the framework of reforms aimed at democratizing the judicial system, expanding effective dialogue with the population and raising the legal culture, a number of important measures are being implemented. Today, within the framework of reforms aimed at democratizing the judicial system, expanding effective dialogue with the population and raising the legal culture. In organizing the activities of the courts as a body that implements strong justice that protects human dignity and interests, rights and freedoms, it is important to analyze priority tasks such as the widespread use of digital technology achievements, the fair and rational application of the capabilities of artificial technology, the acceleration of digitalization of court activities, and the implementation of artificial intelligence technologies in court activities based on the concept of "Digital Court". In this sense, this article comprehensively analyzes the implementation of the concept of "Digital Court", the possibilities and advantages of providing citizens with a fair, fast and open court in accordance with today's requirements, the conceptual foundations of the implementation of a digital court system in the Republic of Uzbekistan. It also examines the possibilities of achieving judicial efficiency, increasing trust and respect for the rule of law and justice, along with ensuring openness and transparency through the implementation of a digital court system.

Keywords: digital court, jurisdiction, Justice, efficiency, quality, outcome, international standards, artificial intelligence, rule of law, legal protection, consistency, enforcement, democracy.

ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"

Bazarova Dildora Baxodirovna

yuridik fanlari doktori, professor

Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani

Annotatsiya. Bugungi kunda sud tizimini demokratlashtirish, aholi bilan samarali muloqotni kengaytirish hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan islohotlar doirasida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ularning asosiy maqsadi – sud organlarining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda qonun ustuvorligini ta'minlash hisoblanadi. Sudlar faoliyatini tom ma'noda inson qadri va manfaati, huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi mustahkam odil sudlovni amalga oshiruvchi organ sifatida tashkil etishda raqamli texnologiya yutuqlaridan keng foydalanish, sun'iy texnologiya imkoniyatlarini odilona va oqilona qo'llash, sudlar faoliyatini raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda "Raqamli sud" konsepsiyasi asosida amalga oshirish singari ustuvor vazifalar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda mazkur maqolada "Raqamli sud" konsepsiyasining joriy etilishi, bugungi kun talablariga mos ravishda fuqarolarga adolatli, tezkor va ochiq sud imkoniyatini taqdim etish imkoniyatlari, afzalliklari, O'zbekiston Respublikasida raqamli sud tizimini joriy etishning konseptual asoslari kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli sud tizimini joriy etish orqali ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan birgalikda sud samaradorligiga erishish, odil sudga bo'lgan ishonch va hurmatni oshirish, qonun ustuvorligi va adolatni hayotga tatbiq etish imkoniyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: raqamli sud, yurisdiksiya, adolat, samaradorlik, sifat, natija, xalqaro standartlar, sun'iy intellekt, qonun ustuvorligi, huquqiy himoya, izchillik, ijro, demokratiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N31>

Kirish. Bugungi global taraqqiyot sharoitida inson huquq va erkinliklarini xalqaro standartlar asosida samarali himoya qilish har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatning barqaror siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi esa, avvalo, huquq ustuvorligi hamda ijtimoiy adolatning amalda ta'minlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, sud-huquq tizimini isloh qilish, milliy qonunchilikni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish va sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sud faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali odil sudlovning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, sud ishlarini yuritish samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'ymoqda. Bunday texnologiyalar iqtisodiyotdan tortib, ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va boshqaruv, sud-huquq tizimigacha chuqur kirib bormoqda. Qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'ladi". Axborot makonidagi o'zgarishlar natijasida jadal rivojlanayotgan zamonaviy texnologiyalar, raqamli intellekt, sun'iy intellekt yutuqlaridan faqatgina inson manfaatlaridan kelib chiqib foydalanish davlat organlarining xalqqa xizmat qilishi g'oyasiga mutlaqo mos keladi. Barcha soha singari sud-huquq sohasida ham ushbu texnologiya yutuqlari faqatgina shaxs, jamiyat manfaatini ta'minlashga xizmat qilishi darkor. Bu borada davlat rahbari boshchiligidagi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlab yuborildi. Davlat va jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish davlat rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ajralmas qismiga aylandi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, so'nggi 4 yil davomida sud-huquq sohasini isloh etish borasida dadil qadamlar qo'yildi. Bu yo'nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilingan Murojaatnomada ham zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlar izchil davom ettirilishi belgilandi. "Sud-huquq tizimini xalqqa yaqinlashtirishga qaratilgan ishlarimizni izchil davom ettiramiz" — deya qat'iy ta'kidladi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev. Shu bois, raqamli sud tizimini joriy etish va rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, elektron sudlov mexanizmlari hamda ularning sud hokimiyati

mustaqilligini ta'minlashdagi o'rnini ilmiy jihatdan tadqiq etish mazkur maqolaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot kompleks metodologik yondashuvga asoslangan bo'lib, raqamli sud tizimini o'rganishda sifat samaradorligi va miqdoriy tahlil usullaridan foydalaniladi. Tahlil jarayonida sud faoliyatining raqamlashtirish darajasi, avtomatlashtirilgan tizim va sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash vositalarining samaradorligi baholandi. Huquqiy tahlil orqali normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilib, kontent-tahlil yordamida raqamli sud mexanizmlari kategoriyalarga ajratildi. Statistika tahlili Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti va regressiya tahlili orqali sud jarayonlarining samaradorligi bilan bog'liqligi aniqlanib, SPSS 28.0 dasturida $p < 0.05$ darajasi bilan ahamiyatlilik darajasi yordamida xulosa qilinadi.

Ma'lumotlar yig'ish va tahlil jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birlamchi ma'lumotlar bazasi sifatida 2018–2024-yillar davomida chop etilgan sud-huquq sohasidagi ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Scopus, Web of Science, Google Scholar kabi ilmiy bazalardan “digital court”, “e-justice implementation”, “AI in judiciary”, “court automation” kabi kalit so'zlar orqali 400 dan ortiq ilmiy manba aniqlanib, ularning eng relevantlari tanlab olindi. Shuningdek, World Bank, UNDP, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlarning sud tizimi, e-justice va raqamli sud platformalariga oid yillik hisobotlari asosiy statistik ma'lumotlar manbai sifatida ishlatildi.

Huquqiy hujjatlar tahlili uchun O'zbekiston Respublikasi Sud-huquq tizimi, “Raqamli sud” konsepsiyasi, elektron sudlov va sud jarayonlarini raqamlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, boshqa davlatlarning raqamli sud tizimiga oid qonunchilik hujjatlari chuqur o'rganildi. Har bir huquqiy hujjat kontent-tahlil usuli yordamida asosiy komponentlar (raqamlashtirish darajasi, monitoring mexanizmlari, compliance talablari) bo'yicha kategoriyalarga ajratildi.

Muhokama. So'ngi yillarda barcha sohalar qatori qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish borasida ham strategik ahamiyatga ega muhim qadamlar tashlandi. Islohotlar davom ettirilib, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham sud tizimi e'tibordan chetda qolmadi. Sud-huquq sohasi islohotlarning tub mazmun-mohiyati mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish etib belgilandi. Aynan ushbu hujjatda ilk bor sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish chora-tadbirlari belgilab berildi. “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash hamda sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, raqamlashtirish ishlarini izchil davom ettirish maqsadida qabul qilingan “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-140-son Farmoni “Raqamli sud” konsepsiyasining huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi.

Ushbu Farmon va Davlat dasturdan 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati va har bir yo'nalish kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlar o'rin oldi. Xususan, "Sudlar faoliyatini raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish" vazifasi doirasida – sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, "Raqamli sud" konsepsiyasi asosida ishlarni bosqichma-bosqich to'liq elektron shaklda yuritish amaliyotini joriy qilish hamda Oliy sud huzurida Axborot texnologiyalari markazini tashkil etishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi. Shuningdek, Prezidentimizning 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini keng tahlil qilgan holda, mamlakatimizda sun'iy intellekt rivojlantirish vazifalari belgilab berildi. Prezident tashabbusi asosida amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar raqamli transformatsiya sud-huquq tizimining modernizatsiyasi va fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga katta hissa qo'shishi tabiiy albatta.

Bevosita "Raqamli sud" tushunchasiga batafsil to'xtaladigan bo'lsak, bu – zamonaviy texnologiyalarni va sun'iy intellektni sud tizimiga joriy qilish orqali sud ishlarini tezlashtirish, samaradorligini oshirish va shaffofligini ta'minlashga yo'naltirilgan yangi yondashuvdir. Ilgari sudga ariza berish uchun ko'plab qog'ozbozlik, navbatlar, uzoq kutish jarayonlari bo'lardi. Endi esa elektron ariza yuborish, ishlarni onlayn kuzatib borish, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish mumkin. Sud tizimida avtomatlashtirilgan taqsimot, sun'iy intellekt asosida tahlil va qarorlar qabul qilish kabi ilg'or yondashuvlar joriy qilinmoqda. Ilgari yetib bo'lmagan natija bo'lib tuyulgan bu imkoniyatlar bugungi kunda odatiy amaliyotga aylanmoqda. Qadimdan adolatni ta'minlash va shaxs huquqlarini himoya qilish sudlarning eng asosiy vazifasi hisoblangan. Shu o'rinda qadimgi mutafakkirlarning odil sudning ahamiyati haqidagi "Mayli dunyo barbod bo'lsin, lekin (adolat) odil sudlov qaror topsin", — ("Pereat mundus et fiat justicia") degan ajoyib bir iborasini keltirib o'tish joiz. [1; B.13.]. Aynan bugungi kunda mana shu adolatni, odil sudlovni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati katta. Shu jihatdan, "Raqamli sud" konsepsiyasi asosida ko'plab xorijiy davlatlarda sud ish yurituvchi tizimi yaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi sud ishlarini to'liq elektron shaklda yuritish va sud jarayonlarini avtomatlashtirishdan iboratligi katta ahamiyatga ega. Mazkur konsepsiya doirasida bir qator zamonaviy vositalar va texnologiyalar joriy etilgan, ular sudlov samaradorligini oshirish va odil sudlovni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu borada A.S.Jukova raqamlashtirishning afzalliklari va ahamiyati to'g'risidagi yondashuvlarini tahlil qilib, sud faoliyatini raqamlashtirish qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida sud ishlarini yuqori texnologiyalar asosida yuritishni, sud organlari faoliyatining sifat va samaradorligini oshiruvchi avtomatlashtirilgan dasturlar, elektron hujjat aylanmasi va sun'iy intellektni joriy etishni talab qilishini ta'kidlaydi. [2; B.17.]. Darhaqiqat, sud tizimini raqamlashtirish har qanday subyekt, ya'ni fuqaro, tashkilot yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari istalgan vaqtda sud bilan bog'lanib, sud ishlarining holati, qarorlar va ajrimlar bilan tanishish, fuqarolarning arizalari va murojaatlarini kuzatish, shikoyatlar sonini huquqbuzarlik turlari bo'yicha avtomatik hisoblash va hududlar kesimida qonuniylik holati to'g'risida onlayn ma'lumot olish imkonini beradi.

Raqamli sud tizimi ishlarni osongina hal etishga mo'ljallangan murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan, "Raqamli sud" konsepsiyasi asosida ko'plab xorijiy davlatlarda sud ish yurituvchi yo'lga qo'yilgan. Nemis olimi R.Helmutning fikriga ko'ra har qanday

holatda va sharoitda ham sud qarorlari qonuniy, adolatli va asoslantirilgan bo'lishi lozim. Raqamli texnologiyalar esa mana shu sifatlarni ro'yobga chiqarishda bir vosita hisoblanishini ta'kidlaydi. [3; B.23.]. A.Ignorning fikriga ko'ra "raqamli sud" ham fuqarolar ko'zida shunchaki "raqamli teatr" bo'lmasligi, chinakam ma'noda odil sudlovni ta'minlashda sud va fuqarolar o'rtasidagi ko'prik bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. [4; B.67.].

2020-yillardan boshlab "Juris" tizimiga sun'iy intellekt (SI) algoritmlarini integratsiya qilish foydalanuvchilar uchun qidiruv, hujjatlar tahlili, SI asosidagi yuridik maslahatlar va "smart search" funksiyalarini amalga oshirish imkonini berdi. [5; B.3.]. Darhaqiqat raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining turli jabhalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Mazkur jarayon chuqur ta'sir ko'rsatgan sohalardan biri jinoyat huquqi sohasi hisoblanadi. Jinoyatchilik shakllarining yangi texnologiyalar ta'sirida transformatsiyalanib borishi, qonunchilar va huquqshunoslardan raqamli muhitda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishni, mavjud qonunchilikni esa zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borishni talab etadi.

Darhaqiqat, sudlar tomonidan SI dan foydalanish bugungi kunda tobora ko'proq e'tibor qaratilayotgan eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Texnologiyaning rivojlanishi natijasida sudlar faoliyati, protsess jarayonlarini soddalashtirish va sudyalardan tomonidan yanada oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyatini oshirmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, "Sun'iy intellekt texnologiyalari jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida, huquqiy himoya jarayonlarining tezkorligini oshirish, jinoyatchilikning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish, xavfsizlik choralarining samaradorligini oshirish jarayonlarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Sud-huquq sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash, SI imkoniyatlaridan foydalanishda Xorijiy davlatlar statistikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, AQSh jamoat xavfsizligi sohasida tezkor qidiruv, jinoyat surishtiruv organlari xodimlarining 50% (predictive policing) sun'iy intellektdan foydalanmoqda. [6; B.7.]. Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda jamoat xavfsizligi sohasida sun'iy intellektni qo'llash 2018-yildan beri har yili 15% ga o'smoqda. [7; B.18] Yildan-yilga xorijiy davlatlar raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt loyihalariga katta mablag'lar ajratmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda jamoat xavfsizligi budjetlarining 25 foizi sun'iy intellekt vositalari uchun ajratilayotganligi buning isbotidir. Masalan, 1 milliondan ortiq aholisi bo'lgan shaharlarning 80 foizi sun'iy intellektga asoslangan kuzatuv tizimlaridan foydalanmoqda. Global huquqni muhofaza qilish organlarining 46 foizi 2025-yilga kelib sun'iy intellektga sarflanadigan xarajatlarni ko'paytirishni rejalashtirmoqda. [8; B.7.]. Haqiqatdan ham, xorijiy davlatlar tomonidan raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt loyihalariga ajratilayotgan mablag'larning yildan-yilga oshib borishi jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida tub o'zgarishlar olib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda jamoat xavfsizligi budjetlarining salmoqli qismi sun'iy intellekt vositalariga yo'naltirilayotgani ushbu texnologiyalarning amaliy samaradorligi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, aholisi bir milliondan ortiq bo'lgan shaharlarning katta qismida sun'iy intellektga asoslangan kuzatuv tizimlarining joriy etilishi jinoyatchilikni erta aniqlash, tezkor choralar ko'rish va profilaktik nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. Fikrimizcha, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish huquqni muhofaza qilish organlarining operativ salohiyatini oshirib, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, xavf zonalarini aniqlash va resurslarni samarali

taqsimlash orqali jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonining tezkorligi va aniqligi sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, global miqyosda huquqni muhofaza qilish organlarining sun'iy intellektga ajratiladigan xarajatlarni oshirishni rejalashtirayotgani mazkur texnologiyalarning uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi. Nazarimizda kelgusida ham sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning jamoat xavfsizligi sohasiga chuqur integratsiyalashuvi jinoyatchilikka qarshi kurashning proaktiv modeliga aylanishda davom etadi. Ya'ni, SI jinoyat sodir etilgandan keyingi javob choralari qo'llashdan ko'ra, ularning oldini olishga qaratilgan bashoratli va profilaktik mexanizmlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalarning rivojlanishi huquqni muhofaza qilish, odil sudlovni ta'minlash faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish bilan birga, ushbu texnologiyalarni qo'llashda inson huquqlari va shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishni ham taqozo etadi. Shu boisdan ham sun'iy intellektdan foydalanishning samaradorligi va natijadorligini uyg'unlashtirishga qaratilgan kelgusidagi muhim yo'nalishlar belgilab olinishi lozim.

Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra 94% xodimlar sun'iy intellekt vaziyatni anglash qobiliyatini yaxshilaydi deb hisoblashadi. [9; B.11.]. Jinoyatchilikka qarshi kurashish, odil sudlovni ta'minlashda sun'iy intellekt vositalarini qo'llash borasida ilmiy izlanishlar olib borgan huquqshunos olim Shoaib Sabbarning ma'lumotlariga ko'ra sun'iy intellektga asoslangan tahlillar jinoyatlarni aniqlash darajasi 28% ga yaxshilash imkonini beradi. [10; B.23.]. Natijada, huquqni muhofaza qilish organlarining tezkor faoliyati samaradorligi ortib, jinoyatlarni fosh etish jarayoni jadallashadi hamda inson omiliga bog'liq xatoliklar sezilarli darajada kamayadi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan bashoratli tahlillarni amalga oshirish, xavf darajasini aniqlash va resurslarni maqsadli ravishda taqsimlash orqali odil sudlovni ta'minlashga xizmat qiladi.

Natijalar. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sudlarda, shu jumladan, jinoyat qonunini qo'llash amaliyotida bir vaqtning o'zida yangi imkoniyatlar bilan birgalikda murakkab muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi qarama-qarshi natijani ko'rishimiz mumkin. Bir tomondan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, SI jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va dalillarni to'plash, analiz qilish, jinoiy javobgarlikka tortish jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtirishga xizmat qilishi tabiiy albatta. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ilg'or kuzatuv tizimlari, katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish, raqamli sud-tibbiyot (digital forensics) usullaridan foydalanish murakkab jinoyat ishlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron pochta yozishmalari, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, mobil qurilmalar va GPS ma'lumotlari kabi raqamli dalillar gumonlanuvchilarning jinoiy faoliyat bilan aloqadorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi an'anaviy jinoyat turlaridan tubdan farq qiluvchi, avval mavjud bo'lmagan yangi jinoyatchilik shakllarining vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, kiberjinoyatchilik xakerlik, shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarni noqonuniy egallash, onlayn firibgarlik, virusli dasturlar tarqatish hamda kiberbulling kabi huquqbuzarliklarni qamrab olgan global muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Ushbu jinoyatlar ko'pincha davlat chegaralaridan tashqarida sodir etilishi, anonimlik va texnologik

murakkablik bilan tavsiflanishi sababli an'anaviy yurisdiksiya va protsessual mexanizmlar uchun jiddiy sinov hisoblanadi. Shu bois, raqamli jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish jinoyat-huquqiy normalarni takomillashtirish, raqamli dalillar bilan ishlashning protsessual asoslarini aniqlashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnologik salohiyatini oshirish, raqamli sud dasturining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Bugungi kunda odil sudlov, jinoyatchilikka faol qarshi kurashish sohasida zamonaviy raqamli texnologiyalar, SI vositalarini qo'llash qanday natijalarga olib kelmoqda degan savolga javob berish uchun bir qator davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Bugunga kelib 25 dan ortiq davlatlar sun'iy intellektga asoslangan "Bashoratli politsiya", (Vorausschauende Polizeiarbeit) platformasidan faol foydalanishmoqda. Ushbu sun'iy intellekt platformasi yuqori xavfli zonalarini 85% aniq baholamoqda. AQSHda Sun'iy intellekt vositalari qo'llanishi natijasida hududlarda zo'ravonlik jinoyatlarini 14% ga kamaygan. [11; B.7.]. Bugunga kelib Sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarni qo'llash natijasida har yili mulkka oid jinoyatlarning 25% dan ortig'ini oldini olish imkonini berayotganligi haqiqatdan ham sud-huquq sohasida, jinoyatchilikni barvaqt bartaraf etish imkoniyatini keltirib chiqarmoqda.

Sud sohasida raqamlashtirish, SI vositalaridan foydalanish, odillikni ta'minlash, shaffoflikni mustahkamlash sohasida rivojlangan davlatlar turlicha lekin maqsadli konsepsiyalarni amalga oshirishmoqda. Hozirgacha jahon miqyosida sun'iy intellektning sud faoliyatida umumiy statistik qamrovi rasmiy ma'lumot bilan yuritilmayotgan bo'lsa-da, lekin ko'plab tadqiqotlar va izlanishlar natijalari e'lon qilib borilmoqda. Jahon tajribasida raqamli texnologiyalar, SI yirik hujjatlar va ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish imkoniyatini taqdim etmoqda. Shuningdek, hujjatlarni tasniflash va ularni sudya uchun tayyorlash vaqtini sezilarli darajada qisqartirmoqda. Sun'iy intellekt qaror qabul qilish jarayonini standartlarga muvofiq imkoniyatini oshirmoqda, natijada qarorlar orasida izchillik va odillik ta'minlanmoqda. Bundan tashqari Sudlar tomonidan SI qo'llash korrupsiya, manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashishning zamonaviy usuliga ham aylanmoqda desak adashmaymiz. Jumladan, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra SI ning hujjatlarni avtomatlashtirilgan tahlili noaniq qarorlar va korrupsiya omillarni kamaytirishga yordam beradi.

Shu bilan birgalikda SI ni qo'llash ayrim kamchilik va xavf-xatarlardan holi emas. Jumladan, SI noto'g'ri ma'lumotlar asosida hujjatlarni tahlil qilish, shaxsiy ma'lumotlarning sir saqlanishiga oid maxfiylikning buzilishi, shaxsga doir ma'lumotlarning tarqab ketishi, SI bazasini buzib kirishga bo'lgan tahdidlar va boshqa. Haqiqatdan ham maxfiylik bilan bog'liq ma'lumotlar, ishonchli va shaffoflikka ega bo'lmasa, yoki maxfiy ma'lumotlarni himoya qila olmasa, jamoatchilikning ishonchi xavf ostida qolishi mumkin. Shunday bo'lsa-da bugungi kunda SI dunyo bo'ylab 20 milliondan ortiq ma'lumotlarni va dalillarni tahlil qilish imkonini bermoqda. Shu sababdan ham mamlakatimizda davlatimiz rahbari tomonidan Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishning ustuvor maqsadlari belgilab berildi. Tahlillar natijasida shuni aytish kerakki, "Raqamli sud" tizimiga faqatgina sud hokimiyati organlari, advokatlar yoki davlat hokimiyati nuqtai nazaridan emas, balki yaxlit tizim sifatida, eng avvalo adolat izlayotgan fuqarolarning manfaatlarini ko'zlagan holda yondashish lozim. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – sud jarayonlarining ochiqligi, shaffofligi va samaradorligini oshirish orqali jamiyat uchun maksimal umumiy foydaga erishishdir. Shu nuqtai nazardan, sud hujjatlarini

rasmiylashtirish va ularni yagona standartlar asosida tuzilmalashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli tashkiliy va texnologik chora-tadbirlar elektron sudlovni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Fuqarolarga huquqiy ta‘sir ko‘rsatish, shu jumladan harakatlanish erkinligini cheklash bilan bog‘liq choralarni qo‘llashda qonuniylilikni so‘zsiz ta‘minlash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish imkoniyati oshadi. “Raqamli sud” konsepsiyasi elektron sud tizimi va sun‘iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash orqali sud hokimiyatining institutsional faoliyatini modernizatsiya qilish, huquqiy jarayonlarni optimallashtirish hamda fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan zamonaviy huquqiy-texnologik model hisoblanadi. Sudlar tomonidan SI dan foydalanish sudyalarga qaror qabul qilish jarayonlarida yordam berish uchun huquqiy sohada zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Raqamli sud konsepsiyasi SI dalillarni tezkorlik bilan tahlil qilish, sud hujjatlarini soddalashtirish imkoniyatini beradi. Sud-huquq tizimida sun‘iy intellektdan foydalanish qaror qabul qilishda samaradorlik, aniqlik va izchillikni oshirishga yordam beradi, adolatni ta‘minlash imkoniyati yanada ortadi. Bu esa chinakam odil sudlovni amalga oshirish imkoniyatini mustahkamlaydi. SI, raqamli texnologiyalar sudlarga shiddat bilan rivojlanayotgan huquqiy makonda murakkab sud jarayonlarida ishonchli va samarali faoliyat olib borish imkoniyatini oshiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Publisher: Oxford University Press Print Publication Date: online: Current Online Version: 2011.
2. M.Sultonov. Transformatsiyalashuv jarayonidagi raqamli sud islohatlari. “Odillik Mezoni” Ilmiy-amaliy huquqiy jurnal. 2025 yil 8-son
3. Helmut Rüßmann: Die Instanzenzüge des Urteilsverfahrens im Strafprozeß. Schaubild. In: Universität des Saarlandes. Abgerufen am 26. September 2019.
4. Alexander Ignor: Schreibt jemand mit? in Die Zeit Nr. 13/2024, abgerufen am 28. März 2024.
5. Y.Abdifatoyev. Sud ishlarini yuritishda sun‘iy intellektdan foydalanish bo‘yicha huquqiy bazani takomillashtirish. “Odillik Mezoni” Ilmiy-amaliy huquqiy jurnal. 2025 yil 7-son
6. Brookings Institution (Brookings-Analysten). Polizeiliche Überwachung und Gesichtserkennung: Warum Datenschutz für farbige Gemeinschaften unerlässlich ist. 2024.J
7. Universität Greifswald: Neuberufung Professur für Strafrecht und Strafverfahrensrecht. Kriminalitätsanalyse und Präventionsstatistiken mithilfe von KI 1. März 2023, abgerufen am 30. November 2023.
8. <https://www.destatis.de/DE/Themen/LaenderRegionen/Internationales/Thema/bevoelkerung-arbeit-soziales/bevoelkerung/Stadtbevoelkerung.html>
9. Kay Nordenbrock. Online-Betrug auf dem Vormarsch: Warum 94% der Deutschen KI als Risiko wahrnehmen. 2024. Datenbank
10. Shoaib Sabbar. Artificial Intelligence and the Future of International Law and Power. Journal of World Sociopolitical Studies, 2025 - wsps.ut.ac.ir
11. Jan Sebisch. Wirtschaft in den USA Regulierung von KI in den USA Rechtsbericht | USA | Künstliche Intelligenz. 2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).